

**INVESTITSION FAOLIYAT VA UNING DAVLAT TOMONIDAN
QO'LLAB-QUVVATLANISHI**



EMU University "Mutaxassislik fanlari" kafedrasi dotsenti

Sh.M.Abdurazzakova

EMU University Kosmetologiya yo'nalishi talabasi

F.Mirsodiqova

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalar mohiyati va uning turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Kapital qo'yilmalar va investitsiyaning undan farq qilishi yoritilib berilgan. Investitision faoliyatni amaliyotga tadbiq etish yo'nalishlari ochib berilgan. Kapitalning xalqaro harakati va uning investitsiyalarga bo'lgan ta'siri tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiya, kapital, kapital qo'yilmalar, investor, investitsion faoliyat, xususiy kapital, ssuda kapitali, tadbirkorlik, jamg'arma, aksiya

Annotation: This article presents the essence of investment and its definitions given by various scholars. The difference between capital investments and investment is highlighted. The directions of introduction of investment activities into practice are revealed. The international movement of capital and its impact on investment has been investigated.

Keywords: investment, equity, capital investments, investor, investment activity, private

Аннотация: В данной статье представлена сущность инвестирования и его определения, данные различными учеными. Выделена разница между капитальными вложениями и инвестициями. Выявлены

направления внедрения инвестиционной деятельности в практику. Исследовано международное движение капитала и его влияние на инвестиции.

Ключевые слова: инвестиции, капитал, капитальные вложения, инвестор, инвестиционная деятельность, прямые инвестиции, заемный капитал, предпринимательство, сбережения, доля equity, loan capital, entrepreneurship, savings, share

KIRISH

Jahonda investitision faoliyatni yo'lga qo'yishda har taraflama asoslangan, puxta o'ylangan investisiya qarorlari investisiyalarni moliyalashtirishning ishonchli manbalari bilan chambarchas bog'liqlikda qabul qilish zarurligini va chet el kapitalini jalb qilishning kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi zamon moliya nazariyasi nuqtai nazaridan investisiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berish, ularning eng muhim sifat tafsiflarini aniqlash g'oyat dolzARB masala hisoblanadi.

Investitsiyalar — investorlar tarafidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ijtimoiy soha, ilmiy va boshqa faoliyat yo'nalishlari obyektlariga risklar asosida kiritiladigan nomoddiy va moddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar hisoblaniladi .

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Investitsiyalar — investorlar tarafidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ijtimoiy soha, ilmiy va boshqa faoliyat yo'nalishlari obyektlariga risklar asosida kiritiladigan nomoddiy va moddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar hisoblaniladi . Investitsiyalarga turli olimlarimiz turlicha ta'rif bergenlar (1.1.1-jadval).



1.1.1-jadval

Investitsiya ta'rifi bo'yicha o'zbek olim va tadqiqotchilarining qarashlari¹

Olimlar	Investitsiyaga berilgan ta'riflar
Xodiev B.Y., Shodmonov Sh.Sh.	Investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirish va qayta tiklashga, ishlab chiqarish quvvatlarini takomillashtirishga qilingan sarf-xarajatlarning pul shakli ko'rinishidir ²
Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G.	Investitsiyalar ijtimoiy samaraga erishish hamda foyda olish maqsadida tadbirkorlik ob'ektlariga va uning faoliyat turlariga qo'yiladigan banklarning maqsadli omonatlari, pul mablag'lari, boshqa qimmatli qog'ozdag'i texnologiyalar, aksiyalar, uskunalar, mashinalar, kreditlar, litsenziyalar, har qanday boshqa mulkiy huquqlar yoki mol-mulk, intellektual boylikdir. ³
G'ozibekov D.G.	Investitsiyalarning mazmuni ishonchli va aniq manbalardan daromadlar olish, ularni maqsadli yo'naltirish, risk darajasini hisobga olgan tarzda kapital qiymatini saqlab qolish va rejalashtirilgan foydani olish. ⁴
Haydarov N.H.	Investitsiya-bu mulk turidan qat'iy nazar, tadbirkorlik faoliayti asosida xizmat ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslar yoki davlatning ijtimoiy va iqtisodiy daromad olishni maqsad qilib olgan mablag'larini qonunchilikka asosan har qanday tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishdir. ⁵
Mahmudov N.M., Avazov N.R.	Investitsiyalar-iqtisodiy yuksalishning muhim ko'rsatkichi bo'lib, aylanma va asosiy kapitalni ishlab chiqarish ko'lами oshirish, restavratsiya qilish va miqdorini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, xorijiy subyektlar yoki davlat tomonidan qonunchilikda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdag'i faoliyat manbalariga kiritiladigan sarmoyalar va unga bo'lgan egalik qilish hamda mavjud jamg'arilgan mablag'dan kelajakda foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan pul qo'yilmalardir. ⁶

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi hamda o'zidagi yangi qurilishlarga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihibiy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy

¹ Mazkur jadval tegishli adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan amalga oshirildi..

² B.Yu.Xodiev Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik 2017 y.454-b.

³ Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. T.:”Moliya”, 2010. 303-b.

⁴ G'ozibekov D.G. Investisiyalarni moliyalashtirish masalalari.T. “Moliya” nashriyoti.2003.26-b.

⁵ Haydarov N.H.Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investision faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari.I.F.D. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.T.:2003.29-b.

⁶ Mahmudov N.M.,Avazov N.R.”O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investisiyalardan samarali foydalanish yo'llari”. Ilmiy-ommabop risola.T.:TDIU, 2019 yil, 9-b.

fanlar va amaliyot “investisiya” va “kapital qo’yilma” terminlari bir xil tushuncha emasligini, ya’ni sinonim so’zlar emasligini ta’kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo’yilmaga nisbatan keng qamrovli va mazmunli tushunchadir. G’arb adabiyotlarida investisiyalar borasida so’z yuritilganda asosiy e’tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investisiyalar asosan qimmatli qog’ozlar yordamida amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiya faoliyati to’rt asosiy yo’nalishlarda bir-biriga bog’liq bo’lmanan holda, turli xil mulkdorlar tomonidan olib boriladi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishning bu yo’nalishlari o’z navbatida bir nechta tip va shakllarda amaliyotga tatbiq etiladi.

Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya’ni investisiyalar quyidagi shakllarda bo’lishi mumkin:


- 1. Pul mablag’lari, banklardagi maqsadli jamg’armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog’ozlar;
- 2. Harakatdagi va harakatda bo’lmanan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar hamda boshqa moddiy boyliklar);
- 3. Mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- 4. Yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- 5. Boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqilanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo’lga qo’yish, mablag’lar sarflash va

ularni amaliyatga tatbiq etish chora tadbirlarining yig'indisi investisiya faoliyatini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xalqaro investitsiyalar kapital aylanishida muhim o'rinni tutadi. Xalqaro kapital harakati shakllarining tasnifi quyidagi xususiyatiga ko'ra taqdim etiladi va amalga oshiriladi (1.2.1-rasm).



1.2.1- rasm. Kapitalning xalqaro harakati formasi

Ushbu rasmdan ko'rib turibmizki, kelib chiqishi bo'yicha: rasmiy kapital – hukumatlar, shuningdek hukumatlararo tashkilotlarning qaroriga binoan davlat budgetidan, chet eldan ko'chiriladigan mablag'lar. Bu turdag'i kapitallarga davlat kreditlari, ssudalari, grant uchun ajratilgan mablag'lar, bir davlatdan boshqa bir davlatga xalqaro kelishuvlar asosida taqdim qilinadigan mablag'lar kiradi.

Xususiy kapital – xususiy firmalar, banklar yoki boshqa nodavlat tashkilotlarning boshqaruv organlari va ularning birlashmalariga o'tkazish yo'li bilan chet elga o'tkazilgan mablag'lari. Bu turdag'i kapitallarga chet el xususiy firmalari kapitallari, tijorat kreditlari, xalqaro bank kreditlari kiradi. Bu kapitallar xususiy firmalar mablag'lari evaziga shakllantirilib, nodavlat tashkilotlar hisoblaniladi⁷.

⁷ Криев А.П. Международная экономика. В 2 ч. Ч.И. Международная экономика: движение товаров и факторов производства : учеб. Пособие для вузов. М.: Междунар. Отношения, 1998. С. 292.

Foydalanish xususiyatlari bo'yicha: Tadbirkor kapitali – foyda olish maqsadida to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita investitsiya uchun jalg qilingan mablag'lar.

Ssuda kapitali – ma'lum miqdorda foiz stavkasi olish uchun beriladigan kredit kapitali hisoblanadi. Bu turdag'i kapitallar ko'pincha davlatlar tomonidan ajratiladi⁸. Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo'nalishida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investisiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo'li bilan davlat investisiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investisiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator chora va tadbirlarni qo'llash va hayotga tatbiq etish negizida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Hujjatda ko'rsatilgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- - soliqlar tizimini qulaylashtirish. Soliq subyektlari, obyektlarini hamda uning miqdorlarini tabaqlash va yengilliklar berish;
- - amortizasiya siyosatini tubdan o'zgartirish, shu jumladan asosiy fondlar amortizasiyasini tezlashtirish (iqtisodiyot sohalari, ba'zi tarmoqlari, asosiy fondlarning qismlari, asbob-uskunalar turlari bo'yicha tabaqlashgan holda amortizasiya yangiliklari o'rnatiladi);
- - ayrim mintaqalar, tarmoqlar, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun dotasiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari orqali moliyaviy yordam ko'rsatish;
- - kredit siyosatini, davlat me'yori va andozalarini, yakka hokimlikka qarshi tadbirlarini amalga oshirish. Davlat mulkini, shu jumladan tugatilmagan

⁸O'sha manba B. 293.

qurilishlarni xususiy lashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish) hamda baholarni tashkil etish siyosati;

- - yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;
- - investisiya loyihamini tekshiruvdan o'tkazish.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan chora va tadbirlarni hayotga tatbiq etish maqsadida respublikada bu borada bir necha qonunlar qabul qilindi. Afsuski, investisiya faoliyatini to'la-to'kis ravishda muvofiqlashtirishni ma'lum obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra joriy etilishi qiyin bo'lmoqda. Ayniqsa, inflyasiya kuchaygan davrda hamda yangi banklar tizimi vujudga kelayotgan jarayonda kredit siyosatini bozor munosabatlarga moslashishi og'ir bo'lmoqda. Mustaqil mamlakatimiz o'z kredit siyosatini yuritish bo'yicha tajribasizligi hamda uni amalga oshirish, iqtisodiyotni zaiflashgan bir davriga to'g'ri kelishi munosabati bilan deyarli ta'sir ko'rsatganicha yo'q. Moliya siyosatini yurgizishda, shu jumladan, soliqlar tizimini takomillashtirishda ham anchagina ishlar qilinishi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda, investisiya loyihamini ekspertizalash sohasida ham tajriba yo'qligi tufayli ko'zlangan samaraga erishish to'la-to'kis ta'minlanganicha yo'q. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ham anchagina muammolar yechilishi lozim. Respublikamizda investisiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning e'tibori birinchi navbatda qayd qilingan muammolarni bartaraf etishga qaratilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalar yo'naliishlarini aniqlashda mavjud bo'lgan vaziyatni hisobga olish, O'zbekiston iqtisodiyotini qayta qurish, chet mamlakatlar bilan aloqalar mustahkamlanishi, jahon bozoriga o'z mahsuloti bilan chiqishni asosiy masala qilib olish lozimdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish masalasi investisiya faoliyatini tashkil qilishni mavjud moddiy va moliyaviy resurslar bilan

bog'langan holda olib borishni talab qiladi va ishlab chiqarish investisiyalarini eng zarur bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilishini taqozo etadi. Bu borada ayniqsa, paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan va tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarurdir. O'zbekiston sharoitida investisiyalar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda namunaviy mashina, asbob-uskunalarni kirib kelishiga qaratilishi juda ham samaralidir. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, investisiyalarning harakatidan kelib chiqib, zamon va makonning almashtirilishi va o'zga iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investisiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar, yangidan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi. Milliy iqtisodiyot chetdan qo'yilma sifatida chet el kapitalini uning turli shakllarida (pul, tovar, mulkiy huquq, intellektual mulk va boshqalar) qabul qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bezis Heri, Niksic Radis Maja. United Kingdom, Pula. Tourism foreign direct investment led tourism gross value added: a co-integration and causality analysis of Croatian tourism. Scholarly journal of UK. Economic research-Ekonomska Istrazivanja 10/12/2017,
2. Elgamodi KHA. United States. The motivational factors for Foreign Direct Investment (FDI) in tourism in Libya. Dissertation. University of Salford. 2017.
3. Li Qin Tian. United States. Study on the feasibility of tourism investment project. Dissertation. Wuhan University.1999 y.
4. Borici-Kraja. Ylvije, Osmani, Elez. Albania. Management of taxation on tourism operators, an important component of revenues and investments in the tourism sector. . Scholarly journal of Albania. Academicus shpk Albania. 2012y.

5. Khan Asif. Pakistan. Revisiting the Dynamics of tourism, Economic growth, and Environmental Pollutants in the Emerging Economies Sustainable Tourism Policy Implications. 24.03.2020 y.
6. Kriev A.P. Mejdunarodnaya ekonomika. V 2 ch. Ch.I. Mejdunarodnaya ekonomika: dvijenie tovarov i faktorov proizvodstva : ucheb. Posobie dlya vuzov. M.: Mejdunar. Otnosheniya, 1998. S. 292.
7. Bogatin Yu.V., Shvander V.A. Otsenka effektivnosti biznesa i investitsiy. M.: YuNITI, 1999.
8. Valdaysev S.V. Otsenka biznesa i innovatsiy. M.: Filing, 1997.
9. Kvartalnoe V.A. Strategicheskiy menedjment v turizme, Sovremennyy orlyt upravleniya. M.: Finansy i statistika, 2000.
10. Fabossi, Frenk Dj. Upravlenie investitsiyami. Per. s angl. M: INFRA-M, 2000.
11. Igoshina L.L Investitsii Uch.pos.-M.: "Ekonomist", 2005.-23 s.
12. Neshitoy A.S. Investitsii Uchebnik.-4-ye. Izd.-M.: " Dashkov i K", 2006.-13 s.
13. Staroverova G.S., Medvedov A.Yu., Sorokina I.V. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy: uchebnoe posobie. -M.: "KNORUS", 2006.-S.11.
14. Zubchenko L.A. Inostrannii investitsii, Uch.pos.-M.: "KNIGODEL".2006.-7 s
15. Mustafoqulov Sh.I., Investitsion muhit jozibadoligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. Toshkent 2017.
16. Xoshimov P.Z.i.f.n., dos. O'zMU To'raev Z.N. mustaqil tadqiqotchi TerDU "Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida" Iqtisod va Moliya №7, 2012 y.

17. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Moliya", 2010.
18. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.T. "Moliya" nashriyoti.2003.
19. B.Yu.Xodiev Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik 2017 y.
20. R.H.Alimov, B.T.Bayxonov, A.I.Ishnazarov, J.O.Imomov. Korxonalarda investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish.o'quv qo'llanma. Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2014
21. Karimov N.G., Xojimatov R.X., Razzokov J.X. Investitsiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019. 149-bet.